

O'ZBEKISTONDA KRIMINOLOGIYANING RIVOJLANISHI, BUGUNGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI

Xujakulov Siyovush Baxtiyorovich,

*O'zbekiston Respublikasi IIIV boshqarma boshlig'i o'rinbosari,
yuridik fanlar doktori, professor*

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda kriminologiya fanining rivojlanish jarayonini, bu borada olimlarning qo'shgan hissalarini yoritishga harakat qilingan hamda kriminologiyaning huquqbuzarliklar profilaktikasi va viktimologiya fanlari predmetlari bilan mutanosibli haqida so'z yuritilgan. Kriminologiyaning amaliy ahamiyatini, bu boradagi mavjud muammolar asoslab berilgan. Shuningdek, kriminologiyaning kelgusi rivoji bo'yicha ilmiy xulosa va tavsiyalari ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: kriminologiya, fan, predmet, jinoyatchilik, jinoyatchilikning oldini olish, profilaktika, jinoyatchilikning sabab va shart-sharoitlari.

Abstract: The article tried to highlight the development process of Criminology in Uzbekistan, the contributions of scientists in this regard, and talked about the proportionality of criminology with the subjects of crime prevention and viktimology. The practical importance of Criminology is based on the existing problems in this regard. Also, scientific conclusions and recommendations on the further development of criminology have been put forward.

Keywords: criminology, science, subject, crime, crime prevention, prevention, cause and conditions of crime.

Yigirmanchi asrning 60 yillarida sobiq Ittifoq davlatlarida alohida mustaqil fan sifatida shakllana boshlagan kriminologiya dastlab 1974 yilda "Kriminologiya va ichki ishlar organlarining profilaktika faoliyatini boshqarish" nomli o'quv kursi sifatida o'qitila boshlangan. So'ngra "Huquqbuzarliklarning oldini olishni tashkil etish", "Huquqbuzarliklarning oldini olish", keyinchalik "Kriminologiya va ijtimoiy profilaktika" deb nomlangan.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda kriminologiya fanining rivojlanishiga G.A. Avanesov, A.I. Alekseyev, S.B. Alimov, Y.M. Antonyan, M.M. Babayev, O.V. Borodin, A.A. Gersyepzon, A.I. Jalinskiy, Z.S. Zaripov, I.I. Karpes, V.N. Kudryavsyev, N.F. Kuznesova, A.N. Larkov, A.B. Saxarov, V.G. Tanasevich, A.S. Shlyapochnikov, A.M. Yakovlev, I. Ismailov, M. Usmanaliyev, Y. Karaketov, Q.R. Abdurasulova va boshqa bir qator olimlar o'zlarining munosib hissalarini qo'shdi.

Ma'lumki, "jinoyatchilikning oldini olish" va "jinoyatdan jabrlanuvchi" bilan bog'liq masalalar kriminologiya faning asosiy predmetlaridan bo'lib, uning muammolari "12.00.08 – Jinoyat huquqi, Kriminologiya, Jinoyat-ijroiya huquqi ixtisosligi" doirasida tadqiq etib kelingan.

Kriminologiyada "jinoyatlarning oldini olish" jinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy yo'nalishi bo'lishi kerakligi "aksioma"ga aylanib ulgurgan [13]. Rivojlangan mamlakatlarda "puxta o'ylangan profilaktika jinoyatlarning oqibatlarini bartaraf etishdan 10 barobar ko'p samaraliroq ekanligi" uzoq yillardan beri o'z isbotini topib kelmoqda.

Bugungi kunda xorijlik kriminologlar nafaqat aniq kriminogen omillarning profilaktik ta'siri, balki ijtimoiy hodisa sifatida muntazam izlanishlarni talab qiluvchi huquqbuzarliklarning oldini olish muammolariga tobora ko'proq e'tibor qaratib [11, 95–106 b], ishlab chiqilgan jinoyatchilikka qarshi kurash nazariyalarini amaliyotga tatbiq etishga katta ahamiyat berishmoqda [6; 558 b]. Shu bois uchinchi ming yillik boshlarida Amerika, Yevropa, Osiyoning iqtisodiy rivojlangan yetakchi mamlakatlarida jinoyatchilikka qarshi kurashning nazariy va amaliy asoslari faol rivojlanmoqda [3, 115–121b].

Xorijiy ekspertlar uzoq yillardan buyon jinoyatchilikka qarshi kurashishning eng samarali usullaridan biri faqatgina jinoyatchilikning kriminologik oldini olish bo'lishi mumkinligi haqida umumiy xulosaga kelishgan. Chunki ushbu yo'l orqali noqonuniy xatti-harakatlarning

manbasini aniqlash, bartaraf etish hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning unchalik avj olmagan determinantlariga osonroq ta'sir qilish va uni bartaraf etish, turli vositalar orqali jinoiy niyatlarga barham berish, jinoyat oqibatlarini kamaytirish, jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida insonparvar va eng kam xarajatli usullarni qo'llash asosida zarur natijalarga erishish, jinoiy jazolar va jinoiy sudlov mexanizmlarini minimallashtirishga erishish mumkin [6; 558 b].

Mazkur masalalar vaqt o'tgan sayin yanada dolzarblashib, doirasining kengayishi hamda mavjud ijtimoiy zarurat sabab "Huquqbuzarliklar profilaktikasi" hamda "Viktimologiya" fanlari kriminologiyadan alohida fan sifatida ajralib chiqdi.

Biroq, o'tgan davr mobaynida ushbu fanlarning predmet doirasiga to'liq aniqlik kiritilmay, hanuzgacha muammoli holatlar yuzaga kelmoqda.

Hozirda "huquqbuzarliklarning oldini olish", "huquqbuzarliklar profilaktikasi" to'g'ridan-to'g'ri "Huquqbuzarliklar profilaktikasi" fanining predmeti hisoblanib, bu boradagi mavjud muammolar mazkur fan doirasida ilmiy tadqiq etib kelinadi. E'tiborli tomoni shundaki, O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-mayda qabul qilingan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunining 3-moddasida "huquqbuzarlik" tushunchasiga "sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g'ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik)" deb ta'rif berilgan bo'lib, u o'zida "jinoyat"ni ham qamrab oladi.

Demak, kriminologiya fani predmeti hisoblangan "jinoyatlarning oldini olish" yoki "jinoyatlar profilaktikasi" huquqbuzarliklar profilaktikasi fani doirasida o'z o'rnini egallagan. Aniqroq qilib aytganda, "jinoyatlarning oldini olish" masalasi kriminologiya va viktimologiya fanlari predmeti tizimidan chiqarib tashlanmasdan, alohida mavzu sifatida o'rganib kelinadi. Ushbu vaziyatda "jinoyatlarning oldini olish" va "jinoyatlardan jabrlanuvchilar" masalalarining kriminologiya fani predmetlari doirasidan o'rin olishi oddiy mantiqsizlikdir.

Natijada ushbu masalalar uchta fan predmeti sifatida takror va takror o'rganilmoqda [19, 17b; 14, 32b; 1, 17b]. Bu esa har bir fanning nafaqat predmetlari muvofiqligini ta'minlash, balki obyekt, maqsadi, vazifalari, funksiyalari

kabi nazariy asoslarini ham kompleks tadqiq qilish zarurligini taqozo etadi.

Ma'lumki, fanning predmeti – u nimani va qaysi nuqtayi nazardan o'rganadi, degan savolga javob beradi. Fanning rivoji aslida uning predmeti rivojiga bog'liq bo'lib, buning uchun fan predmeti aniqlashtirilgan bo'lish lozim. Fan predmetining to'g'ri belgilanishi esa, birinchidan, ilmiy tadqiqot jarayonida fanning predmetini tadqiq etish va aniq ifodalashga imkon yaratadi; ikkinchidan, tadqiqot ishlarini olib borishda nazariy va metodologik jihatdan to'g'ri yo'nalishdan borishga yordam beradi; uchinchidan, fanning maqsadi va vazifalarini aniq ifodalashda muhim omil hisoblanadi.

Garchi, kriminologiya sal kam yarim asrdan buyon fan sifatida rivojlanib kelayotgan bo'lsa-da, bugungi kunda o'z o'rnini sekin-astalik bilan huquqbuzarliklar profilaktikasi faniga bo'shatib berayotgan, rivojlanishdan bir oz to'xtagan, mavjud bilimlari nisbatan eskirgandek ko'rinadi. Shu bois kriminologik muammolarning aksariyatini hal qilishda huquqbuzarliklar profilaktikasidagi mavjud bilimlarga tayanib qolinyapti. Buni yaqin yillarda himoya qilingan doktorlik dissertatsiyalarda ham kuzatish mumkin [18, 222–223 b; 5, 145–146 b; 10, 16–19 b; 17, 17b.].

Demak, ushbu jarayon huquqbuzarliklar profilaktikasi va viktimologiya fanlarini kriminologiya fanidan ajralib chiqish zaruratini keltirib chiqargan. Bu tarzda xulosa qilishga sabab shundaki, Z. Zaripov va I. Ismailov tomonidan tayyorlangan Kriminologiya darsligida [7, 63–72 b] fan predmeti aniq ko'rsatilmagan bo'lsa-da, ammo u o'rganadigan quyidagi to'rt guruhdagi ijtimoiy hodisalar sanab o'tilgan: birinchisi, jinoyatchilik, uning mohiyati va qonuniyatlari; ikkinchisi, jinoyatchilikning determinantlari (sabab va shart-sharoitlari); uchinchisi, jinoyatchi shaxs; to'rtinchisi, jinoyatchilikning oldini olish muammolari.

2006-yilda nashr qilingan Kriminologiya darsligida esa mazkur bo'shliq bartaraf etildi va darslikning 1-bobi "Kriminologiya fani, uning predmeti va metodlari"ga bag'ishlandi. Darslikda fan predmetini aniqlashtirish asosiy muammolardan biri sifatida keltirilgan bo'lsa-da, predmetni belgilashda avvalgi yondashuvdan chetga chiqilmagan, aksincha predmet doirasini yanada toraytirib, kriminologiya fanining predmeti va tadqiqot obyekti sifatida "jinoyatchilik, jinoyatchining shaxsi, jinoyatchilikning sabab va sharoitlari" [7, 12b] keltirilgan. Biroq, "krimino-

logiya fani nimani o'rganadi?" degan savolga javob berishda yuqoridagilar bilan birga, "oldini olish choralari tizimi" ham kiritilib, bir oz tushunarsiz holat yuzaga kelgan. Eng qizig'i, darslikning 19-bobi "Jinoyatlarning oldini olishda "viktimologiya" tushunchasi va uni ilmiy bilishning ahamiyati"ni yoritishga bag'ishlangan bo'lsa-da, ammo fan predmetini belgilashda bu masalaga e'tibor qaratilmagan [7, 372–384 b].

2015-yilda I. Ismailov, Q.R. Abdurasulova va I.Yu. Fazilov tomonidan tayyorlangan Kriminologiya (Umumiy qism) darsligining 1-bob 1-paragrafi "Kriminologiya fanining tushunchasi, obyekti va predmeti" masalalariga bag'ishlangan [8, 272b]. Ammo bunda ham kriminologiya fanining predmetini belgilashda bir oz noaniqlikka yo'l qo'yilganligini ko'rish mumkin. Sababi mualliflar kriminologik ijtimoiy hodisalar fanning predmeti bo'lishini ta'kidlab, bu kabi hodisalar sifatida quyidagilarni sanab o'tishgan:

1) jinoyatchilik; 2) jinoyatlarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar; 3) jinoyatchi shaxsi; 4) jabrlanuvchi shaxsi; 5) jinoyatchilik profilaktikasi.

Ushbu tizimda avvalgi darsliklarda yo'l qo'yilgan bo'shliqlarga barham berilib, fan predmeti doirasiga jabrlanuvchi shaxsi ham kiritilgan. Biroq, shu bilan birga, "jinoyatlarning oldini olish" tushunchasidan voz kechilib, "jinoyatlar profilaktikasi" tushunchasi qo'llanilgan. Mazkur yondashuvni 2014-yil 14 mayda qabul qilingan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni [16] bilan "oldini olish" tushunchasiga nisbatan "profilaktika" tushunchasiga ustuvorlik berilganligini e'tirof etish hamda qonun talablari va mazmuniga amal qilish deb talqin qilish mumkin. Biroq, "profilaktika" bu huquqbuzarliklar profilaktikasi fani predmeti hisoblanadi, garchi "jinoyatlar profilaktikasi" bo'lsa ham. Chunki qonunning 3-moddasida "huquqbuzarlik" tushunchasi "sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g'ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik)" [16] ni qamrab oladi. Demak, mantiqan fikr yuritilsa, ma'muriy huquqbuzarlik bo'ladimi yoki jinoyatmi har ikkalasiga oid profilaktik masalalar huquqbuzarliklar profilaktikasi orqali o'z yechimini topmog'i lozim.

Bundan tashqari, mamlakatimizda ilk marotaba tayyorlanib, nashr qilingan "Viktimologiya" darsligida (2021-yil) ham "jinoyatlarning

viktimologik oldini olish" viktimologiya fanining predmeti ekanligi ko'rsatib o'tilgan [2, 14 b]. Shu vaziyatda kriminologiya fani predmetidagi "jinoyatlarning oldini olish" hamda viktimologiya fani predmetidagi "jinoyatlarning viktimologik oldini olish"dan huquqbuzarliklar profilaktikasi fani predmeti o'rtasidagi o'zaro farqqa oydinlik kiritish zarurati mavjudligi ko'zga tashlanadi.

Bizning nazarimizda, "huquqbuzarliklar profilaktikasi" – bu faoliyat, "huquqbuzarliklarning oldini olish" esa ushbu faoliyatdan ko'zlangan maqsad va bu maqsad nafaqat "huquqbuzarliklar profilaktikasi"ning, balki tergov, tezkor-qidiruv, ekspert-kriminalistik, jinoiy jazolarni ijro etish (shu jumladan, probatsiya), jamoat tartibini saqlash, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash kabi faoliyatlarining ham asosiy maqsadlaridan biridir. Bu borada professor E.X. Narbutayev jinoyatlarning sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash talabi jinoyat-protsyessual, tezkor-qidiruv va jinoiy-huquqiy jihatdan shartlanganligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, jinoiy-huquqiy shartlanganlik qilmishni kvalifikatsiya qilish, tayinlanadigan jazo turi va miqdorini belgilab berishga xizmat qilishi, jinoyat-protsyessual shartlanganlik esa jinoyatning sabablari, shuningdek, jabrlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi shaxsini tavsiflovchi holatlarning aniqlanishi ishni ayblov xulosasi bilan sudga yuborish va ayblov hukmi chiqarish uchun isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar sirasiga kiritilganligi hamda tezkor-qidiruv jihatni jinoyatni tez va to'liq ochish hamda aybdorni fosh etishga imkon berishi bilan izohlanadi [4, 93b]. Bu esa yuqoridagi fikrimizni yanada asoslashga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, kriminologiya hamda viktimologiya fanlari "jinoyatlarning oldini olish" masalasiga jinoyat, jinoyat-protsyessual, jinoyat-ijroiya va tezkor-qidiruv huquqlari doirasida yondashishi, bu boradagi bilimlarni o'rganishi va muammolarni tadqiq etishi lozim. Aks holda, ushbu fanlar predmetlarida tavitologiya (takrorlanish holati, bir fikrni boshqa so'zlar bilan takrorlash) kuzatiladi. Viktimologiya haqida so'z ketganda shuni ham ta'kidlash joizki, "viktimologiya" (lotin tilida "victima" – jabrlangan, jabrlanuvchi va "logos" – ta'limot), ya'ni jabrlanuvchi (qurbon)lar to'g'risidagi ta'limot ma'nosini beradi. Viktimologiya, o'z mazmuniga ko'ra, nafaqat jinoyatchilik natijasida jabrlanganlarga yetkazilgan zararni,

balki baxtsiz hodisa, tabiiy ofat, urush, genosid, davlatning noto'g'ri siyosati oqibatida yuzaga kelgan jabrlanishlarni ham o'rganadi. Kriminologiyada esa ushbu tushuncha tor ma'noda, ya'ni faqat jinoiy xatti-harakatlardan jabrlanganlarga nisbatan qo'llanilib kelingan [7, 372 b]. Keyinchalik viktimologiya kriminologiyadan alohida fan sifatida ajralib chiqqan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, jinoyatdan jabrlanuvchilarni mustaqil fan sifatida o'rganuvchi viktimologiyani "Kriminal viktimologiya" deb nomlash talab etiladi. Shuningdek, kriminologiya fani predmeti doirasidan "jinoyatdan jabrlanuvchi"ni chiqarib tashlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kriminologiya fanida ham, kriminologik tadqiqotlarda ham fanning predmet doirasiga kiruvchi jinoyatchilik, jinoyatchi shaxsi, jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlari, jinoyatdan jabrlanuvchi, jinoyatlarning oldini olish masalalari mohiyati asosan nazariy jihatdan ochib berilgan. Aniqroq qilib aytganda, mavjud muammolarning yechimi sifatida faqat ilmiy xulosalar qilish bilan cheklanib kelingan.

Misol uchun, jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlari, garchi amaliy ahamiyat kasb etsada, haligacha jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, hisobini yuritish, tahlilini olib borish, kriminologik tahlil va prognozlash tirishda ushbu tahlillardan foydalanishning huquqiy mexanizmi hamda tashkiliy-taktik jihatlari amaliyotga joriy etilmagan.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2017-yil 12-iyundagi 100-son buyrug'i talabiga ko'ra, jinoyatning sabablari va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarini sinchkovlik bilan o'rganish, yo'l qo'yilgan qonun buzilishi holatlari yuzasidan mas'ul shaxslar (fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxona, tashkilot, muassasa va boshqa davlat organlari mansabdor shaxslari)ni so'roq qilish va ularning harakatlari huquqiy baho berish qat'iy belgilangan. Lekin mazkur buyruqning talabiga yetarlicha amal qilinmaydi hamda jinoyatning sabablari va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash maqsadida so'roq qilish tergov harakati deyarli o'tkazilmaydi.

Aslini olganda bu borada amaliyotchilarni ayblash bir tomondan noto'g'ri, chunki jinoyat protsyessi nazariyasining o'zida ushbu masalaning ilmiy yechimi mavjud emas. Chunki, protsessualist olimlar jinoyatlarning sabablari va

shart-sharoitlarini aniqlash talabi jinoyat-protsyessual, tezkor-qidiruv va jinoiy-huquqiy jihatdan shartlanganligini ta'kidlab [4, 93b], mazkur talabning profilaktik shartlanishini nazardan chetda qoldirganlar. Shu bois "tergovchi jinoyat ishini yuritishda jinoyatning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash maqsadida alohida tergov harakatlarini o'tkazmaydi, ular o'z-o'zidan, tergov chog'ida shaxsni ayblash va hukm qilish uchun asos bo'lgan holatlarni isbot qilish mobaynida to'liq yoki qisman aniqlanadi" [4, 93b] deb tushunadilar.

Ba'zi bir protsyetssualistlar, tergovchi ishni tergov qilish jarayonida faqatgina sodir etilgan jinoyatning sababiy bog'liqligini aniqlash bilan chegaralanib qolmasdan, muayyan turdagi jinoyatlarning kriminalistik tavsifi (xarakteristikasi)da umumlashgan tipik sabablar va shart-sharoitlarini bilishi hamda mavjud ma'lumotlardan yuzaga keladigan butun majmuani (jinoyatni sodir etgan shaxs ongida jinoyatning sodir etilishi uchun bevosita sabab bo'lgan jamiyatga qarshi ko'rsatmaning xarakteristikasiga; jinoyat subyekting axloqiy shakllanishi sharoitlariga; jinoyat sodir etilgan obyektiv vaziyatga oid ma'lumotlarni) aniqlashi kerak, deb hisoblashsa-da, ammo ushbu aniqlashda e'tibor berilishi kerak bo'lgan holatlarga yetarlicha oydinlik kiritilmagan.

Shuning uchun ham kriminologiyaning sababiyat nazariyasiga oid ilmiy asoslangan bilimlariga tayanib, huquqbuzarliklarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashda quyidagilarga urg'u berilishi maqsadga muvofiq:

birinchisi, huquqbuzarning shaxsi (ijtimoiy-demografik, jinoiy-huquqiy, ma'naviy-ruhiy va biofizilogik belgilari)ga; ikkinchisi, huquqbuzarning tarbiyasi, oilasidagi muhit, ehtiyoji, manfaatlari, motivi, maqsadi, hayotda tanlagan yo'lga; uchinchisi, huquqbuzarlik sodir etilgan vaqt, joy, shart-sharoit, huquqbuzarlikni sodir etish usuli va vositasiga; to'rtinchisi, huquqbuzarlik sodir etilgan vaqt va joyda huquqbuzarlikning oldini olish lozim bo'lgan subyektlarning faoliyatiga; beshinchisi, huquqbuzarlikdan jabrlanuvchining shaxsi (ijtimoiy-demografik, jinoiy-huquqiy, ma'naviy-ruhiy va biofizilogik belgilari), aybli yoki aybsiz viktimlik holatiga; oltinchisi, huquqbuzar va jabrlanuvchi o'rtasidagi aloqalar (yaqin qarindosh, qarindosh, quda-anda, qo'shni, mahalladosh, hamkasb,

sinf-dosh, kurs-dosh, tanish, notanish kabilar) va munosabat (ziddiyatli, adovatlashgan kabilar) ga; yettinchisi, ota-onasining ilgari huquqbuzarlik sodir etgan-etmaganligi, sodir etgan bo'lsa, qaysi turdagi huquqbuzarlikni sodir etganligiga; sakkizinchisi, huquqbuzarlikni sodir etish mexanizmi va hokazolarga.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Oliy sudi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasining 2018-yil 30-dekabr-dagi QK-83, 08/UM-706-18, 1, 84, 01-02/22-77-son qarori bilan Elektron jinoiy-huquqiy statistika yagona axborot tizimini yuritish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlangan.

Unda, ushbu Nizom statistik kartochkalarining elektron shakllarini tuzish orqali jinoyat ishlari, tergovga qadar tekshiruv materiallari, sud muhokamalari hamda jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlari ijrosi natijalari, jinoyat yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslar va jabrlanuvchilar bo'yicha ma'lumotlarning yagona hisobini yuritish tartibini belgilashi keltirib o'tilgan.

Biroq, ushbu normativ-huquqiy hujjat predmetida ham, "hisob obyektlari" tizimida ham huquqbuzarlikning sabablari va sodir etilishiga imkon beruvchi sharoitlar o'z aksini topmagan. Vaholanki, huquqbuzarliklarning tizimli sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etishda asosiy muammolardan biri – huquqbuzarlik holatlari bo'yicha ularning sabablari va sodir etilishiga imkon beruvchi sharoitlarni hisobga olishning markazlashgan tizimi yo'qligi.

Xizmat taqozosi bilan Toshkent shahrida 2017-yil davomida sodir etilgan o'g'rilik va firibgarlik jinoyatlarining sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun o'sha davrda O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida faoliyat yuritgan Ilmiy-amaliy tadqiqot markazi xodimlari tomonidan 388 ta o'g'rilik, 556 ta firibgarlik jinoyati bo'yicha sudga yuborilgan ayblov xulosalari bittadan o'rganib chiqilgan [15]. Agar shunga o'xshash zarurat tug'lsa, har bir jinoyat ishini bittadan o'rganib chiqish va tahlil qilishga to'g'ri keladi.

Bordi-yu, muayyan jinoyatning respublika miqyosidagi mavjud sabab va sharoitlarini o'rganish zarurati yuzaga kelsa, u holda bu vazifani bajarish uchun qancha vaqt, kuch va vosita sarflanishi zarurligini tasavvur qilish qiyin.

Bu esa so'z yuritilayotgan masalaning qanchalik muhimligini, qolaversa, huquqbuzarlik, xususan, jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, ular haqida haqiqiy (obyektiv) va ilmiy asoslangan tasavvurga ega bo'lishda juda katta qiyinchiliklar mavjudligini oydinlashtiradi. Natijada, huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini aniqlash, qayd etish, bu borada ma'lumotlarning yagona markazlashgan hisobini yuritish, ushbu axborotlarni tahlil qilish hamda ulardan maqsadli foydalanish amaliyotini joriy etish masalasi yanada dolzarb-lashadi.

Elektron jinoiy-huquqiy statistika yagona axborot tizimini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomning 3-bandida keltirilgan "birlamchi hisobga olish elektron statistik kartochkalaridan "1-shakl – aniqlangan va sodir etilgan jinoyatlarni hisobga olish yagona elektron statistik kartochkasi", "2-shakl – jinoyat sodir etgan shaxsni hisobga olish yagona elektron statistik kartochkasi" va "3-shakl – jinoyat ishi bo'yicha jabrlanuvchilarni hisobga olish yagona elektron statistik kartochkasi" mazmunan tahlil qilinganida hisobga olinadigan ma'lumotlar jinoyatning sabab va sharoiti nuqtayi nazarida shakllantirilmaganligi ma'lum bo'ldi. Ushbu holat jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash imkoniyatini cheklaydi.

Mazkur vaziyatda kriminologiya fani bilimlariga tayanib, "1-shakl", "2-shakl" va "3-shakl" elektron statistik kartochkalarining yangi shaklini amalga kiritishni zarur deb hisoblaymiz [9, 195 b].

Bu borada S.S. Niyozova o'z tadqiqot ishida ichki ishlar organlarining jinoyatlar profilaktikasi bo'limlarida sodir etilgan zo'ravonliklarning holatlari va undan jabrlangan shaxslar haqidagi "Ma'lumotlar bazasini" shakllantirish taklifini bildirgan, biroq ushbu ma'lumotlar bazasida hisobi yuritilishi nazarda tutilgan ma'lumotlar tizimi tahlil qilinganida, ularning aksariyati huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini emas, aksincha ushbu yo'nalishdagi faoliyat bo'yicha hisobdorlikni ta'minlashga qaratilganligi ma'lum bo'ldi [12, 266 b].

Bu esa mamlakatimizda sodir etilgan huquqbuzarliklar bo'yicha "Huquqbuzarlikning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar", "Jabrlanuvchilarning viktin xulq-atvori" hamda "Huquqbuzarlik sodir etgan

shaxslarning kriminal xulq-atvori”ga ko’ra hisobini yuritish maqsadida “E-Determinant” kompleks axborot-tahliliy tizimini yaratish zarurati mavjudligini ko’rsatadi.

Bundan tashqari, kriminologik bilim va ko’nikmalarning amaliy ahamiyatini oshirish zarur. Bugungi kunda ham amaliyotchilar, ham nazariyotchilar kriminologiyaga nisbatan huquqiy fanlar ichidagi “huquq falsafasi”dek munosabatda bo’lishadi. Ularning aksariyati kriminologiyaning amaliy ahamiyati haqida yetarlicha tasavvurga ega emas. Aslida ham shunday, ya’ni kriminologik bilim va ko’nikmalarni amaliyotda qo’llashga doir tizim mavjud emas.

Birgina misol, kriminologiya nazariyasida muayyan jinoyat turiga yoki ma’lum bir yoxud toifadagi jinoyatchi shaxs(lar)ga nisbatan kriminologik tavsif berilishi haqida ko’plab fikr-mulohazalar bildiriladi. Qolaversa, “kriminologik tavsif berish” kriminologiyaning asosiy funksiyalaridan biri ham hisoblanadi. Biroq, nazariyada “kriminologik tavsif berish”ning to’laqonli metodikasi mavjud emas. Aynan shuning uchun ham amaliyotda kriminologik tavsif berish amaliy ahamiyatga ega emas. Vaholanki, jinoyat turiga yoki jinoyatchi shaxsga nisbatan beriladigan kriminologik tavsif jinoyatlarning maxsus (huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi) va individual (huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi) kriminologik oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, jinoyat ishini tergov qilgan har bir tergovchi jinoyat ishini tamomlayotganda ayblanayotgan har bir shaxsga kriminologik tavsif berishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shu bois, mazkur amaliyotni amalda joriy etish va buning uchun, eng avvalo, kriminologik tavsif berishning metodikasini yaratish, xususan, tavsif berishning mezonlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Bu kabi zaruratni, jinoyat sodir etgan yoki jinoyatdan jabrlanuvchi shaxsga nisbatan kelgusida jinoyat sodir etish yoxud jinoyatdan jabrlanish bo’yicha individual tashxis qo’yish, shuningdek kriminologik prognozlash (ilmiy bashorat qilish) masalasida ham kuzatish mumkin. Aynan shuning uchun, bu kabi tushunchalar, real amaliy faoliyatda qo’llanmasdan, faqatgina ilmiy yoki o’quv manbalarida yoxud tashkiliy-huquqiy hujjatlarda tilga olinish bilan cheklanib kelinadi.

Bunga misol tariqasida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-fevraldagi “Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to’g’risida”gi PQ-3528-son qarori 7-bandi bilan Toshkent shahri ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari zimmasiga, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan vazifalar bilan bir qatorda, qo’shimcha vazifa sifatida yuklatilgan “biriktirilgan hududda istiqomat qiluvchi shaxslarni o’rganish va kelgusida ularning har biriga g’ayriijtimoiy e’ki boshqa huquqqa xilof xulq-atvor ehtimoli nuqtayi nazaridan individual tashxis qo’yish hamda profilaktik ahamiyatga ega ta’sirchan choralarni ko’rish” vazifasi amalda bajarilmasdan qolayotganligini ko’rsatish mumkin.

Vaholanki, ushbu vazifaning ijrosi shaxslarga kelgusida g’ayriijtimoiy yoki boshqa huquqqa xilof xulq-atvor ehtimoli nuqtayi nazaridan individual tashxis qo’yish masalasini bevosita profilaktik hisobga olingan, o’ziga nisbatan ma’muriy nazorat o’rnatilgan va shartli hukm qilingan shaxslar bilan ishlashda ham inobatga olishni talab etadi. Aks holda bu toifadagi shaxslarga individual tashxis qo’yimasdan va individual tashxis asosida ishlab chiqilgan tizimli profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirmasdan ularni axloqan tuzatib va jamiyatga qaytarib bo’lmaydi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, kelgusida kriminologiya fanini rivojlantirish va mavqeyini oshirish uchun quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

birinchidan, XX asrning ikkinchi yarmida shakllanib, rivojlangan va kriminologiya fanining nazariy asoslari boyitilishiga juda katta hissa qo’shgan hamda jinoyatlarning kelib chiqish sabablarini ilmiy asoslab bergan ijtimoiy, ijtimoiy psixologik, psixologik va ijtimoiy-biologik yo’nalish nazariyalari doirasida amaliy va fundamental tadqiqotlar olib borish;

ikkinchidan, psixologiya va tibbiyot fanlari doirasida insondagi psixologik va biologik omillarning jinoyat sodir etilishidagi roli bilan bog’liq holatlar bo’yicha ilmiy izlanishlar olib borish, bu borada samarali profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirilishiga doir ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni yo’lga qo’yish;

uchinchidan, kriminologiyaning nazariy konsepsiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi ilmiy g'oyalarni ilgari surish, ushbu g'oyalarning himoya qilinishi va amaliyotga joriy etilishini ta'minlash uchun yuridik oliy ta'lim muassasalarida ilmiy maktablar yaratish choralari ko'rish;

to'rtinchidan, kriminologiyaning nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etish, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borish uchun davlat buyurtmalarini shakllantirish va ushbu buyurtmalarining bajarilishi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish;

beshinchidan, kriminologiya fani predmetidagi "jinoyatlarning oldini olish" hamda viktimologiya fani predmetidagi "jinoyatlarning viktimologik oldini olish" bilan huquqbuzarliklar profilaktikasi fani predmeti o'rtasidagi o'zaro farqqa oydinlik kiritish;

oltinchidan, jinoyatdan jabrlanuvchilarni mustaqil fan sifatida o'rganuvchi viktimologiyani "Kriminal viktimologiya" deb nomlash va kriminologiya fani predmeti doirasidan "jinoyatdan jabrlanuvchi" masalasini chiqarib tashlash;

yettinchidan, "kriminologik tavsif berish", "individual tashxis qo'yish" hamda "kriminologik prognozlash"ning metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Foydalanilgan manbalar

1. Abdurasulova Q.R., Zakirova A.G., Umirzakov B.A., Qarshiyev G'.S. "Kriminologiya" fani dasturi. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 17 b.
2. Viktimologiya: Darslik / Q.R. Abdurasulova, A.G. Zakirova, F.M. Muxitdinov va boshq.; Mas'ul muharrir prof. F.M. Muxitdinov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 320 b.
3. Гордеев А.Ю. К вопросу о положительном опыте предупреждения преступлений в зарубежных странах // Вопросы российского и международного права, 2017. – Т. 7. – № 11А. – С. 115–121.
4. Jinoyat protsyessi (Umumiy qism): Ma'ruzalar kursi / prof. E.X. Narbutayev tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – 93 (109)-b.
5. Ibrohimov J.A. Terrorizm bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari: Yurid. fan. d-ri ... dis. – T., 2020. – 156-b.
6. Кобец П.Н. Комплексное криминологическое исследование особенностей предупреждения преступности в современной Японии // Russian Journal of Economics and Law, 2021. – Т. 15. – № 3. – С. 558. DOI: <https://dx.doi.org/10.21202/2782-2923.2021.3.566> (556-572).
7. Kriminologiya: Darslik / Prof. Z. S. Zaripov tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. – 474 b.
8. Kriminologiya: Darslik / Prof. Z.S. Zaripovning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2007. – 91-b.
9. Xujakulov S.B. Huquqbuzarliklar profilaktikasi: genezisi, nazariyasi va amaliyoti // Yuridik fanlar doktori dissertatsiyasi. – T., 2023. – 425 b.
10. Qarshiyev G'.S. Yoshlar residiv jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va profilaktikasi: Yurid. fan. d-ri ... dis. – T., 2020. – B. 16-19 (48);
11. Майоров В.И., Севрюгин В.Е. Противодействие преступности на основе современных концепций взаимодействия полиции и общества: опыт зарубежных стран и России // Вестник Пермского университета. Юридические науки. 2017. Вып. 35. – С. 95–106. DOI: 10.17072/1995-4190-2017-35-95-106.
12. Niyozova S.S. Shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning viktimologik profilaktikasi: Yurid. fan. d-ri ... dis. avtoref. – T., 2020. – B. 16.
13. Предупреждение преступности: понятие, цели, система, принципы // URL: <https://blog.liga.net/user/mplastun/article/35844> (murojaat vaqti: 15.09.2022).
14. Tursunov A.S., Alimov B.F. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi" fan dasturi. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 32 b.
15. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida faoliyat yuritgan Ilmiy-amaliy tadqiqot markazining tahliliy ma'lumotnomasi. – T., IIV Akademiyasi, 2017.

16. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-son qonuni // URL: <https://www.lex.uz/docs/2387357> (murojaat vaqti: 26.05.2021).
17. Умирзаков Б.А. Вояга етмаганлар жиноятчилигининг криминалогик тавсифи ва олдини олишни такомиллаштириш. Юрид. фан. бўйича фалсафа д-ри (Doctor of Philosophy) ... дис. – Т., 2021. – Б. 154.
18. Фазилов И.Ю. Одам савдосига қарши курашнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминалогик жиҳатлари: Юрид. фан. д-ри ... дис. – Т., 2016. – Б. 222–223.
19. Фазилов И.Ю., Абдурасулова Қ.Р., Хўжакулов С.Б. "Виктимология" фан дастури. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2017. – 14 б.

